

## Toshkent shahrida demografik holat

2025-yil yanvar-sentabr oylari uchun

- I. Asosiy demografik ko'rsatkichlar
- II. Doimiy aholi soni
- III. Tug'ilganlar va vafot etganlar
- IV. Nikohlar va nikohdan ajralishlar
- V. Aholi migratsiyasi
- VI. Demografik ko'rsatkichlarning uslubiy tushuntirishlari  
va metama'lumotlari

### I. Asosiy demografik ko'rsatkichlar

2025-yilning 1-oktabr holatiga Toshkent shahrining doimiy aholisi soni **3 164,0** ming kishini tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan **2,2** foizga ko'paygan. 2025-yil yanvar-sentabr oylarida tug'ilganlar soni **47,7** ming nafarni, vafot etganlar **12,6** ming nafarni tashkil etib, tabiiy o'sish **35,1** ming kishiga teng bo'ldi. Poytaxtimizga xorijiy davlatlardan ko'chib kelganlar soni **682** kishini va poytaxtdan xorijga ko'chib ketganlar soni **1151** kishini, qayd etilgan nikohlar **16,9** mingtani, nikohdan ajralishlar **4,6** mingtani tashkil etgan.

Doimiy aholi soni

**3 164,0** *ming kishi*

Tug'ilganlar soni

**47,7** *ming kishi*

Vafot etganlar soni

**12,6** *ming kishi*

Xorijdan ko'chib kelganlar

**682** *kishi*

Xorijga ko'chib ketganlar

**1151** *kishi*

Nikohlar soni

**16,9** *ming birlik*

Nikohdan ajralishlar soni

**12,6** *ming birlik*

## II. Doimiy aholi soni


Toshkent shahrida doimiy aholi soni 2025-yil 1-oktabr holatiga ko'ra **3 164,0** ming kishini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **68,5** ming kishiga yoki **2,2** foizga ko'paydi. Ayollar soni **1 610,2** ming kishini (**50,9%**), erkaklar esa **1 553,8** ming kishini (**49,1%**) tashkil etmoqda.

### Doimiy aholi soni, ming kishi

|                        | 2024-yil       | 2025-yil       | O'sish sur'ati,<br>% da |
|------------------------|----------------|----------------|-------------------------|
| <b>Toshkent shahri</b> | <b>3 095,5</b> | <b>3 164,0</b> | <b>102,2</b>            |
| <i>tumanlar:</i>       |                |                |                         |
| Uchtepa                | 301,4          | 303,3          | 100,6                   |
| Bektemir               | 64,4           | 70,4           | 109,3                   |
| Yunusobod              | 383,4          | 391,1          | 102,0                   |
| M Ulug'bek             | 335,6          | 340,9          | 101,6                   |
| Mirobod                | 153,8          | 156,1          | 101,5                   |
| Shayhontohur           | 368,5          | 372,7          | 101,1                   |
| Olmazor                | 409,9          | 416,8          | 101,7                   |
| Sergeli                | 172,0          | 177,7          | 103,3                   |
| Yakkasaroy             | 138,1          | 143,8          | 104,1                   |
| Yashnobod              | 307,7          | 315,8          | 102,6                   |
| Yangiheyot             | 184,3          | 198,4          | 107,7                   |
| Chilonzor              | 276,4          | 277,0          | 100,2                   |

Toshkent shahrida 2025-yil 1-oktabr holatiga ko'ra 1 kvadrat kilometrda o'rtacha **8788,9** kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda **190,3** kishiga ortgan (2024-yil 1-oktabr holatiga 1 kv.km.ga **8598,6** kishi).

### Aholi zichligi, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni




### III. Tug'ilganlar va vafot etganlar

Toshkent shahrida 2025-yilning yanvar-sentabr oylarida qayd etilgan tirik tug'ilganlar soni **47,7** ming kishini, har ming aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti **20,3** promilleni tashkil etdi. Tug'ilganlar soni joriy yilning yanvar-sentabr oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan minus **3,7** ming nafarga kamaygan.

Vafot etganlar soni **12,6** ming kishini, har ming aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti **5,4** promilleni tashkil etdi. Vafot etganlar soni joriy yilning yanvar-sentabr oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan **0,1** ming nafarga kamaygan.


**Tug'ilganlar va vafot etganlar soni, ming kishi**



Toshkent shahrida tirik tug'ilganlar soni **47,7** ming kishini, shundan o'g'il bolalar soni **24,6** ming kishini (jami tug'ilganlar soniga nisbatan **51,6%**), qiz bolalar soni **23,1** ming kishini (**48,4%**) tashkil etdi.

Toshkent shahrida vafot etganlar soni **12,6** ming kishini, shundan erkaklar **6,7** ming kishini (jami vafot etganlar soniga nisbatan **53,2%**), ayollar **5,9** ming kishini (**46,8%**) tashkil qildi.

**Tug'ilganlar va vafot etganlarning jinslar bo'yicha taqsimlanishi, ming kishi**




#### IV. Nikohlar va nikohdan ajralishlar

Toshkent shahrida 2025-yilning yanvar-sentabr oylarida qayd etilgan nikohlar soni **16,9** ming birlik, har ming aholiga nikoh koeffitsiyenti **7,2** promilleni tashkil etdi. Nikohlar soni joriy yilning yanvar-sentabr oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan **0,3** ming birlikka kamaygan.

Nikohdan ajralishlar soni **4,6** ming birlik, har ming aholiga nisbatan ajralish koeffitsiyenti **2,0** promilleni tashkil etdi. Ajralishlar soni joriy yilning yanvar-sentabr oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan **0,2** ming birlikka ko'paygan.


##### Qayd etilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni, ming birlik



Toshkent shahrida qayd etilgan nikohlar soni **12,6** ming birlikni, 2024-yilning mos davrida qayd etilgan nikohlar soni **16,6** ming birlikni tashkil etdi.

Toshkent shahrida nikohdan ajralishlar soni **4,6** ming birlikni, 2024-yilning mos davrida qayd etilgan nikohdan ajralishlar soni **4,4** ming birlikni tashkil qildi.

##### Qayd etilgan nikohlar va nikohdan ajralishlarning taqsimlanishi, ming birlik



## V. Aholi migratsiyasi


2025-yil yanvar-sentabr oylarida Toshkent shahri bo'yicha ko'chib kelganlar jami soni **75 005** kishini, shu jumladan respublikaning boshqa hududlaridan ko'chib kelganlar **74 323** kishini, xorijiy mamlakatlardan ko'chib kelganlar **682** kishini tashkil etdi.

Ko'chib ketganlar jami soni **58 782** kishini, shu jumladan respublikaning boshqa hududlariga ko'chib ketganlar **57 631** kishini, xorijiy mamlakatlarga ko'chib ketganlar **1151** kishini tashkil qildi.

### Ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni, kishi

|                        | Ko'chib kelganlar soni |              |            | Ko'chib ketganlar soni |               |             |
|------------------------|------------------------|--------------|------------|------------------------|---------------|-------------|
|                        | Jami                   | shundan:     |            | Jami                   | shundan:      |             |
|                        |                        | ichki        | tashqi     |                        | ichki         | tashqi      |
| <b>Toshkent shahri</b> | <b>75 005</b>          | <b>74323</b> | <b>682</b> | <b>58 782</b>          | <b>57 631</b> | <b>1151</b> |
| <i>tumanlar:</i>       |                        |              |            |                        |               |             |
| Uchtepa                | 5309                   | 5259         | 50         | 6119                   | 5790          | 329         |
| Bektemir               | 4707                   | 4673         | 34         | 1272                   | 1231          | 41          |
| Yunusobod              | 7750                   | 7722         | 28         | 6061                   | 5936          | 125         |
| M Ulug'bek             | 6388                   | 6273         | 115        | 5521                   | 5398          | 123         |
| Mirobod                | 4232                   | 4140         | 92         | 3468                   | 3396          | 72          |
| Shayhontohur           | 4449                   | 4445         | 4          | 5635                   | 5613          | 22          |
| Olmazor                | 5294                   | 5261         | 33         | 5827                   | 5796          | 31          |
| Sergeli                | 8311                   | 8277         | 34         | 5093                   | 4992          | 101         |
| Yakkasaroy             | 3209                   | 3203         | 6          | 2866                   | 2830          | 36          |
| Yashnobod              | 9311                   | 9106         | 205        | 5698                   | 5570          | 128         |
| Yangihayot             | 10 615                 | 10 602       | 13         | 3992                   | 3950          | 42          |
| Chilonzor              | 5430                   | 5362         | 68         | 7230                   | 7129          | 101         |

### Xorijdan ko'chib kelganlar va xorijga ko'chib ketganlar soni, kishi



## VI. Demografik ko'rsatkichlarning uslubiy tushuntirishlari va metama'lumotlari

**Demografik ko'rsatkichlarni** shakllantirish maqsadida, Milliy statistika qo'mitasi bilan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi o'rtasida ma'lumotlar elektron almashinuvi bo'yicha ushbu vazirliklarning birlamchi ma'lumotlar bazasiga integratsiya qilingan.

Demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish uchun zarur bo'ladigan barcha zaruriy ma'lumotlar integratsiya orqali elektron shaklda olinishi sababli, alohida statistika kuzatuv shakli tasdiqlanmagan.

Demografik ko'rsatkichlarni tavsiflovchi ma'lumotlarni shakllantirish maqsadida, statistika organlari tomonidan boshqa davlat organlari (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi)dan olingan aholining tabiiy harakati va aholi migratsiyasi to'g'risidagi birlamchi ma'lumotlar qayta ishlanadi.

Demografik ko'rsatkichlar bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- tug'ilganlik haqida dalolatnoma yozuvi;
- o'lim haqida dalolatnoma yozuvi;
- nikoh tuzilganligi haqida dalolatnoma yozuvi;
- nikohdan ajralganlik haqida dalolatnoma yozuvi;
- ko'chib kelishni statistik hisobga olish varaqasi;
- ko'chib ketishni statistik hisobga olish varaqasi ma'lumotlari.

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/demografiya-va-mehnat/814-asosiy-demografik-ko-rsatkichlarni-shakllantirishda-fuqarolik-holati-dalolatnomalari-va-statistik-hisob-talonlari-ma-lumotnomalarini-kodlashtirish-bo-yicha-qo-llanma>

<https://lib.stat.uz/uz/features/demografiya-va-mehnat/853-asosiy-demografik-ko-rsatkichlarni-shakllantirish-bo-yicha-uslubiy-nizom-2>

---

**Tayyorlash uchun mas'ul:**  
Demografiya, mehnat va gender  
statistikasi bo'limi

**Ijrochi:**  
D.Sattarova  
71 203-80-03 (3570)

**Manzil:**  
Toshkent sh., Amir Temur shoh  
ko'chasi, 11 uy

---